



**QASHQADARYO VILOYATI  
SHAHRISABZ TUMANI HOKIMINING  
QARORI**

181302, Shahrisabz shahri, Fusunkor ko'chasi 86-uy, tel/faks: 75-522-02-25

2022 - yil 23 - iyul

172-4-67-Q/22

Shahrisabz tuman hokimligi

**Xalq deputatlari Shahrisabz tuman Kengashining 2022-yil 22-iyuldagi "Shahrisabz tuman mahalliy byudjetining 2022-yil 2-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag'larni yo'naltirish to'g'risida"gi VI-44-56-4-67-K/22-sonli qarori haqida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli qarori, Xalq deputatlari Shahrisabz tuman Kengashining 2022-yil 22-iyuldagi "Shahrisabz tuman mahalliy byudjetining 2022-yil 2-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag'larni yo'naltirish to'g'risida"gi VI-44-56-4-67-K/22-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasiga asosan

**QAROR QILAMAN:**

1. Xalq deputatlari Shahrisabz tuman Kengashining 2022-yil 22-iyuldagi "Shahrisabz tuman mahalliy byudjetining 2022-yil 2-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag'larni yo'naltirish to'g'risida"gi VI-44-56-4-67-K/22-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligi moliya bo'limi (A.Bozorov) tuman mahalliy byudjetining 2022-yil 2-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan tuman hokimligiga "Fuqarolar tashabbusi" jamg'armasiga 1042,0 mln. so'm mablag' ajratsin.

3. Tuman g'aznachilik bo'linmasi (D.Asadov) ushbu ajratiladigan mablag'lar bo'yicha shartnomalarni o'z vaqtida ro'yxatdan o'tkazish va xarajatlarni belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta'minlasin.

4. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (D.Boboqulov) ajratilgan mablag'dan maqsadli foydalansin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari A.Rustamov zimmasiga yuklatilsin.

**Shahrisabz tuman hokimi**



**S.A.Xasanov**